

GLOBAL URBANIZATSIYA VA IJTIMOY-IQTISODIY BARQARORLIK: SINGAPUR MODELINING YANGI O‘ZBEKISTON KONSEPSIYASIGA UYG‘UNLASHUVI

Ilmiy rahbar: Xudoyberganova Dilnoza
Samadilloev Asadbek O‘ktam o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich talabasi

E-mail: asadbeksamadullayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20811965>

Annotatsiya

Ushbu maqolada global urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik masalalari tahlil qilinadi hamda Singapur iqtisodiy modeli tajribasining Yangi O‘zbekiston taraqqiyot konsepsiyasiga uyg‘unlashtirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda barqaror rivojlanishning nazariy asoslari, urbanizatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari hamda zamonaviy shaharsozlik siyosatining davlat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan.

Shuningdek, Singapur modelining muvaffaqiyat omillari institutsional islohotlar, korrupsiyaga qarshi qat‘iy siyosat, inson kapitaliga investitsiyalar va texnologik rivojlanish tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribani moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqola yakunida urbanizatsiya va barqaror rivojlanish o‘zaro bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ular samarali boshqaruv va innovatsion yondashuv orqali ijobiy natija berishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: global urbanizatsiya, barqaror rivojlanish modeli, Singapur, iqtisodiy mo‘jiza, Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi

Kirish.

XXI asr global shaharsozlik va texnologik rivojlanish jamiyatining asridir. Bugungi kunga kelib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti taxminlariga ko‘ra, zamonamizdan yana 50-100 yildan keyin dunyo aholisining qariyb 70 foizi shaharlarda istiqomat qiladi va urbanizatsiyaning eng cho‘qqisiga yetishgan bir davrning guvohiga aylanadi. Bu jarayon faqatgina demografik ko‘chish bo‘libgina qolmay, ba’lki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlash borasida jamiyatimizga yangicha chaqiriqlarni va o‘z navbatida bir nechta muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda urbanizatsiya mamlakatlar bo‘ylab iqtisodiyotning o‘sishning asosiy omili bo‘lish bilan birga, infratuzilmalar yetishmasligi, ekologik muammolar, tabiatning keskin ifloslanishi va o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan zamonaviy davlatlar uchun urbanizatsiya va barqaror rivojlanishning “oltin formulasini” ishlab chiqish kunning eng ustuvor muammosiga aylanib bormoqda. Albatta bunday global formulani ishlab chiqqan va undan mohirona foydalangan mo‘jizagina bir davlat mavjud. Ushbu mo‘jizagina davlat Singapur davlatidir. Bugungi global urbanizatsiya va barqaror rivojlanishning eng samarador va tabiat bilan hamnafas bo‘lgan Singapur modelidir.

Singapur - hech qanday tabiiy resurslarsiz, oddiy bir qashshoq mitti oroldan bor yo‘g‘i bir inson avlodi almanishuvi davrida dunyoning eng yirik moliyaviy va zamonaviy texnologik nuqtasiga aylanish metodi dunyoga haqiqiy “iqtisodiy mo‘jizaning” kuchini real institutsional mexanizmlar bilan juda mohirona ko‘rsatib qo‘ydi. Singapur modeli - bu faqatgina baland, osmono‘par binolarni qurish emas, ba’lki qat‘iy, intizomga tayangan qonun ustuvorligi, har bir fuqaro kapital xo‘jaligiga investitsiya, mamlakatda korrupsiya va o‘zboshimchaliklarga qarshi

murosasizlik, mamlakatda zamonaviy eco-Smar City texnologiyalarni tatbiq qilishdan iborat edi. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichida, shunday ekan mamlakatimiz yangi bosqichga o'tish davrida Singapur kabi rivojlangan, mamlakatning barqaror rivojlanish modelini jamiyatimizga ehtiyotkorlik bilan moslashtirishni maqsad qilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan O'zbekiston - 2030 strategiyasi doirasida mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini jahon standartlariga tenglashtirish, texnologik va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatimizda ijtimoiy himoyani kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida mamlakatning yillik ish rejasiga kiritilgan. Singapur tajribasining Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanish konsepsiyasiga uyg'unlashtirish bu shunchaki modeldan nusxa ko'chirib qo'yish emas, balki Singapur mamlakatining innovatsion va zamonaviy boshqaruv uslublarini O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi va iqtisodiy salohiyatiga uyg'unlashtirgan holda integratsiya qilish demakdir.

Asosiy qism

Singapur "iqtisodiy mo'jizasi" - bu shunchaki Singapurga taqdirning sovg'asi emas edi, balki mamlakatning boshqaruv tizimida aniq hisob-kitob, qat'iy intizom va uzoqni ko'zlab olib borgan buyuk bir shijoat natijasidir. 1965-yilda mamlakat mustaqillikga erishganda, bu davlatning na tabiiy boyliklari na oziq-ovqat zahiralari na ichimlik suvi na sanoati bor edi. Singapur Malayziya tarkibidan mustaqil davlat sifatida chiqarilgandan so'ng, Li Kuan Yu mamlakatning birinchi bosh vaziri mamlakati taqdiri uchun ko'z yosh to'kkan edi. Chunki, mamlakat hatto toza ichimlik suvlarini Malayziyadan sotib olar, aholining deyarli 70-75 foizi ishsizlikdan qiynalar, uy-joy sharoiti juda og'ir, atrofdagi qo'shni mamlakatlar bilan esa munosabatlar tarang va eng achinarlisi mamlakat o'zini himoya qila olish uchun milliy armiya tizimi yo'q edi. Ammo mamlakatning aholisining birlashuvi va mohirona davlat boshqaruvi mamlakatda strategik burilish qilish ya'ni eksportga yo'naltirilgan industrizatsiyaga o'tish imkonini ochishdi. Bunga ko'ra, Singapur boshqa rivojlanayotgan davlatlar kabi import o'rnini bosish yo'lidan bormadi, balki ular dunyo bozoriga chiqishni o'zlarining eng katta maqsadi qilib olishdi. Mamlakatda xorijiy investorlar va transmilliy kompaniyalar uchun dunyodagi eng qulay imkoniyatlar yaratildi.

Shuningdek Singapur oz tasarufiga portlarni dunyoning eng yirik tranzit markaziga aylantirdi. Singapur mo'jizasi ortida turgan asosiy omillar: lavozimlarga tanish-bilish bilan emas, balki haqiqatdan iqtidorli va sof bilimga ega yosh avlodni ishga olish, davlat xizmatchilariga korrupsiya olishlariga hojat qolmasligi uchun eng yuqori oylik maoshlar berila boshlandi. Mamlakatda faqatgina mafkura va siyosat emas, balki millat va xalq uchun nima foyda bersa o'sha narsani qilish singdirildi. Bundan tashqari, mamlakatda qonun ustuvorligi qayta yo'lga qo'yilib, tartib intizom hamma uchun bir xil qilib belgilandi.

Bu narsa mamlakatlarga investorlar kirishini ko'lamini kengaytirib, ularda ishonch tuyg'usini uyg'otdi. Mamlakatda rivojlanish bosqichlari tartib bilan amalga oshirilib 1960-1970 yillarda mamlakatning arzon ishchi talab qiladigan asosiy sohalari to'qimachilik va oddiy sanoat mollarini yig'ish sohasi rivojlandi. 1980-1990 yillarda mamlakatda yuqori texnologiyalar talab qiladigan sohalar, elektronika va neftni qayta ishlash sanoatiga o'tish yo'lga qo'yildi. 2000-yildan hozirgi kunga qadar esa mamlakatning moliyaviy xizmatlar, sun'iy intellekt, biotexnologiyalar, IT va innovatsiyalar markazi sohalari ommaviy ravishda rivojlanish yo'lga kirib keldi. Shunday qilib mamlakat barqaror rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga erishish yo'lida ushbu qadamlarni birma-bir amalga oshirdi.

Buning natijasida mamlakat YaIM ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda TOP 5 mamlakatlari qatoridan joy oldi, dunyodagi eng xavfsiz va toza davlatlardan biri va ta'lim tizimi bo'yicha ham yetakchi davlatlar qatorida eng yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatib kelmoqda. Singapur tajribasi shuni ko'rsatdiki, hatto eng kichik va tabiiy resurslarsiz bo'lgan davlat ham to'g'ri boshqaruv va korrupsiyasiz tizim, ilm-fanga sarmoya kiritish orqali ham global yetakchi davlatga aylanish mumkin.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va Singapur modeli o'rtasidagi uyg'unlikni, birinchi navbatda institutsional islohotlar va inson kapitalini modernizatsiya qilish nuqtalarida tutashadi. Bugungi kunda O'zbekiston barqaror rivojlanish konsepsiyasiga ko'ra iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, davlat boshqaruvini yuqori texnologiyalar bilan raqamlashtirish va mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlashni maqsad qilgan bo'lsa, Singapur modeli tajribasi bu maqsadlarga erishishning sinovdan o'tgan mexanizmlarni taklif eta oladigan modeldir. Bunga ko'ra, mamlakatimiz birinchi navbatda mamlakat ichki boshqaruv tizimida korrupsiyaga qarshi qattiq kurashni yo'lga qo'yishi va lavozimlarga malakali, yosh, shijoatga to'la va eng asosiysi bilimli kadrlarni jalb qilishi va ularga jahon standartlari asosida maosh bilan ta'minlashi va ularning ish jarayonlariga qa'tiy intizoni joriy qilishi lozim.

Hozirda Yangi O'zbekistonda ham davlat boshqaruvida xalqchil davlat qurilishining boshlanishi mamlakatda Singapur davlat kabi mamlakatda davlat apparatini optimallashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashishda amaliy yordam bo'lishi mumkin va bu o'z navbatida mamlakatda moslashish jarayonini tezlashtirishga ham katta yordam beradi. Boshqaruvdagi byurokratiya keskin kamayib, qarorlar qabul qilish amalda tezlashadi va uning natijalari ham samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston 2030 strategiyasida mamlakatda shaharsozlik darajasini oshirish muhim o'rin tutadi. Bu strategiya Singapur modelida ham namoyon bo'lib, unda yuqori darajadagi urbanizatsiyani amalga oshirish aholini sifatli va arzon narxdagi uy-joylar bilan ta'minlash bilan bir qatorda mamlakatda yashil infratuzilmalarni saqlab qolish, ularni davlat himoyasiga o'tkazish choralari ko'rilgan edi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston massivlarini qurish bilan birgalikda shaharlarda ekologik yashil nuqtalarni, bog'larni va suv havzalarini ko'paytiriish orqali mamlakatda Singapur modelini qo'llash nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bu mamlakatda issiq havo kuzatilganda shahardagi barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, mamlakatimizning ta'lim tizimiga Singapur modelidan ba'zi bir nuqtalarni integratsiya qilishimiz mumkin. Masalan Singapur tizimi nazariyalardan ko'ra ko'proq amaliy ko'nikmalarga va texnologik savodxonlikga etibor qaratadi. Yangi O'zbekiston konsepsiyasida Singapur ta'lim tizimini uyg'unlashtirib, o'quv dasturlarimizga nazariya bilan birgalikda amaliy ko'nikma darslarini qo'shib mehnat bozoriga ikki barobar ko'proq kadrlarni yetishtirishimiz va mehnat faoliyati madaniyatini shakllantirishimiz lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Singapur modelining Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanishi konsepsiyasi sharoitiga ko'ra uyg'unlashuvi - bu milliy o'zlikni saqlab qolgan holda jahonning eng ilg'or boshqaruv metodlarini hayotga tatbiq qilish demakdir. Zero milliy yuksalishimizning ilk qadamlari shu bosqichdan boshlanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi orqali mamlakatimiz 2030-yilga kelib jahonda iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha munosib o'rinlarni egallashini ta'minlovchi kompass xizmatiga ega bo'ladi. Yakunda Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanishi bosqichi uchun ushbu takliflarni taqdim etamiz:

- yashil urbanizatsiyani yo'lga qo'yish
- boshqaruv tizimlarini to'liq raqamli tizimga integratsiya qilish
- mamlakat tranzit va logistika tizimini zamonaviy jihozlar bilan to'liq ta'minlash
- eksportga yo'naltirilgan texnologik xomashyolarni ishlab chiqishni boshlash
- barqaror rivojlanish modelida rivojlangan mamlakatlar modelidan ko'nikmalar olish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lee Kuan Yew.From Third World to First:The Singapore Story:1965-2000.HarperCollins,2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida. Toshkent,2023.
3. World Bank report.Urbanization and Economic growth in Middle-Income countries.Washington DC,2022.
4. Singapore - Urbanization, Economy, Technology | Britannica
5. Uchinchi dunyo mamlakatidan taraqqiyotning eng yuksak darajasigacha. «Singapur mo'jizasi» haqida
6. Сингапур "мўъжизаси" ни ким яратган? – HURRIYAT.